

**JAHONDA MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTLARI  
RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI****MAHSUTALI BUVAMATOV DARMONJONOVICH***Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Bog'ish qishlog'i**Dang'ara ko'p tarmoqli texnikumi**Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari**+998910551211***ANNOTATSIYA**

Maqolada O‘zbekistonda biznes sub’ektlarida buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi tartiblari ular faoliyatini haqqoniy aks ettirish, biznesning potensial qiymatini baholash, muhim, sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qator tarixiy rivojlanish tendensiyalari kabi muammolar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** *Biznes, moliya ,tadbirkorlik foydasi, asosiy o‘lchagich, muhimlik moliyaviy hisobotda, offsetting, mol-mulk.*

**KIRISH**

Ma’lumki, biznes bozor iqtisodiyotidagi asosiy mashg‘ulotlardan biri bo‘lib, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish manbai hisoblanadi. U ishlab chiqarish, tijorat, konsalting, bank va boshqa faoliyat sohalarini qamrab oladi. Xodimlar soni, ishlab chiqarish hajmi va faoliyat sharoitlariga ko‘ra kichik, o‘rta va yirik korxonalar farqlanadi. Biznesning eng keng tarqagan turi kichik biznesdir: odatda, u bir hil mahsulot ishlab chiqaradigan va bozorda kichik ulushni egallagan kichik korxonadir.[1]

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

Moliyaning muhim elementi sifatida resurslarni taqsimlash kategoriya hisoblanadi. Bu kategoriya qadimiyyidir va insoniyat jamiyatining paydo bo‘lishidan beri mavjud. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, u maqsad va holatiga qarab to‘rt darajadan iborat.

1- chi daraja: Qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlari. Bular: 30.08.1996 yildagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonuni va 13.04.2016 yildagi 404-sonli yangi tahrirdagi Qonun qabul qilindi; O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi; va boshqa qonunlar; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. 24.08.1994 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan buxgalteriya hisobi va statistika tizimiga o‘tish davlat dasturi to‘g‘risida”gi 433-i-sonli qarori (24.05.1996 y.dagi 193- sonli qarorining yangi tahriri) va boshqalar.[2]

2-chi daraja: Buxgalteriya hisobi qoidalarini ifodalovchi buxgalteriya standartlari, masalan, BHMS-1 — “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustdagi 474-sun bilan ro‘yxatga olingan), BHMS-12 – “Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 16-yanvardagi 596-sun bilan ro‘yxatga olingan) va boshqalar. Hozirgi kunda 23 ta BHMS ishlab chiqilgan.

3-chi daraja: Yo‘riqnomalar va uslubiy ko‘rsatmalar: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, tarmoq vazirliklari va idoralarining yo‘riqnomalari, me’yoriy hujjatlar.

4- chi daraja: Tashkilotning ichki hujjatlari: hisob siyosati; hisobning ish rejasi; hisobni yuritish axborotini qayta ishlash texnologiyalari va boshqalar. Barcha to‘rt darajasi buxgalteriya hisobini me’yoriy tartibga solish bo‘yicha umumiy o‘zaro bog‘liq tizimini tashkil etadi.[3]

Buxgalteriya hisobi xo‘jalik hisobining ajralmas qismi hisoblanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi xo‘jalik hisobining uch turga bo‘linishiga olib keldi: Operativ Buxgalteriya Statistik

- bu ular ro‘y bergan vaqtida ularni boshqarish maqsadida alohida faktlar yoki jarayonlar ustidan kuzatish va joriy nazorat qilish tizimi

- moliyaviy faoliyatni boshqarish va nazorat qilish maqsadida iqtisodiy axborotlarni uzlusiz o‘zaro bog‘langan holda aks ettirish tizimidir

- ularni boshqarish va nazorat qilish maqsadida ommaviy (umumiy) hodisalar, faktlar yoki Jarayonlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirish tizimi.[4]

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobotning maqsadi korxonaning moliyaviy holati, faoliyati va moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat bo‘lib, u iqtisodiy qarorlar qabul qilishda keng foydalanuvchilarga, ayniqsa butun dunyo bo‘ylab diversifikatsiya va investitsiya imkoniyatlarini qidirayotgan investorlar uchun foydalidir. Asosiy sifat ko‘rsatkichlari va tegishli buxgalteriya standartlarini qo‘llash, odatda, adolatli taqdimotni ta’minlaydigan moliyaviy hisobotlarga olib keladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, ularning qo‘llanilishi va jahon miqyosida tan olinishi hamda ushbu standartlarga o‘tishning dolzarbliji va ahamiyati borasidan iqtisodchi olimlar va mutaxassislardan tomonidan keltirilgan fikr-mulohazalari va tadqiqot natijalariga to‘xtalib o‘tiladi.[5]

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – bugungi kunda jahon mamlakatlarida qo‘llanilayotgan buxgalteriya hisobining xalqaro etalonini hisoblanadi. Hozirgi kunda 60 dan ortiq shunday standartlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Fikrimizcha, 90 ga yaqin davlat Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi tomonidan e’lon qilingan MXHS larga to‘liq mosligini va audit hisobotlarida bunday muvofiqlikni tan olishi, taxminan 120 davlat va hisobot beruvchi yurisdiksiyalar

mahalliy listing kompaniyalari uchun MXHSlar bo‘- yicha hisobotlarni ishlab chiqishiga ruxsat berishi yoki talab qilishi bu mulohazani to‘la qonli oqlaydi. Bugungi kunda ochiq moliya bozorlariga talab har qachongidan ham kuchliroq. Globallashuv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni solishtirish va uyg‘unlashtirishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shu sababli, ko‘plab davlatlar moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini joriy etishda juda ko‘plab o‘ziga xos yo‘llarni bosib o‘tgan va endilikda qo‘llashni boshlayotgan davlatlar ham bunga intilmoqda.[6]

### XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, u maqsad va holatiga qarab to‘rt darajadan iborat. Buxgalteriya hisobi xo‘jalik hisobining ajralmas qismi hisoblanadi. Xo‘jalik hisobi uch turga:

- Operativ,
- Buxgalteriya,
- Statistik

kabi bo‘linadi. Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzzish chog’ida buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) va buxgalteriya hisobi asosiy tamoyillari qo‘llanishini ifodalaydi. Buxgalteriya balansi uning resuslari va moliyaviy tarkibi, hisobat vaqtidagi moliyaviy ahvolini aks ettiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni № 404. – T.: 2016 y
2. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari. T.: - O‘BAMA. 2004.
3. Sh. Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizaev, I.R.Ibragimova Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma.// -T.: Iqtisodiyot, 2019. -227 bet.
4. Turayeva G. FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 45-50.
5. Turayeva, G., Abdullayeva, G., Abdurasulova, N., Ibragimova, A., Meliyeva, L., & Olimjonova, M. (2022). XALQARO BOZORLARDA “MADE IN UZBEKISTAN” BRENDIDAN KENG FOYDALANISH IMKONIYATINI YARATISH MEZONI. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(27), 99-102.
6. Qaxxorovna, T. G. (2023). The Impact of Artificial Intelligence on the Economy. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 57- 61.